DISFEMIK MA'NOLI EVFEMIZMLARNING XUSUSIYATLARI

Eshqurbonova Aziza Bozor qizi
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
Mamayusupova Diyora Baxtiyorovna
Termiz davlat Pedagogika instituti 1-bosqich talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada desfemizm va evfemizmlarga ta'rif va ularning farqli jihatlari hamda disfemiya haqida olimlarning fikrlari tahlil qilingan. Shuningdek, Disfemik birliklarning shakliy strukturasiga ko'ra, ma'no qamrovi asosiga, disfemik ma'noli birliklarning leksik-semantik munosabatlar asosiga ko'ra turlari va qo'llanilish xususiyatlari ochib berilgan. Disfemizim tushunchasi misollar bilan yanada aniq qilib tushuntirib berilgan.

Kalit so'zlar: disfemizm,so'z-disfema, birikma-disfema, gap-disfema, ma'nodosh-disfema, shakldosh-disfema.

Annotation: This article provides definitions of dysphemism and euphemisms, analyzes their distinctive features, as well as scholars' opinions on dysphemia. Furthermore, the types of dysphemic units are examined according to their formal structure, based on the scope of meaning, and according to the lexical-semantic relations of dysphemic meaningful units;The concept of dysphemism is explained more clearly with examples.

Keywords: dysphemism, word-dysphema, phrase-dysphema, sentence-dysphema, synonym-dysphema, form-similar-dysphema, skill of using dysphema

Аннотация: В данной статье даны определения дисфемизма и эвфемизмов, проанализированы их отличительные особенности, а также мнения учёных о дисфемии. Кроме того, освещены виды дисфемических единиц по их формальной структуре, на основе объёма значения, по лексико-

семантическим отношениям дисфемических смысловых единиц и особенности употребления дисфемических смысловых единиц. Понятие дисфемизма разъяснено более чётко с примерами.

Ключевые слова: дисфемизм, слово-дисфема, сочетание-дисфема, предложение-дисфема, синоним-дисфема, формально-подобная-дисфема, мастерство употребления дисфемы, художественный дисфемизм, дисфемизм политических понятий.

Kirish. Evfemizmning aksi hisoblangan disfemizm hodisasi ham qadimdan mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, evfemizmdan farqli o‘laroq, kam o‘rganilgan. Buning sababi esa badiiy adabiyotda, madaniy muloqot muhitida odob nuqtai nazaridan berilishi mumkin bo‘lmagan birlik sifatida qaralganidir. Disfemizmga O.S.Axmanovaning “Tilshunoslik atamalari lug‘ati” deb nomlanuvchi lug‘atda qisqacha izoh berib ketiladi. “Disfemizm (kakofemizm) isp. disfemismo. Trop. muayyan matndagi predmet, narsa hodisa nomini nisbatan qo‘pol, vulgar ifoda bilan almashtirish. Zid varianti,, Evfemizm…”[1] Disfemizm ikkinchi jahon urushidan keyingina turli illatlar (giyohvandlik, fohishabozlik, o‘g‘rilik, yetimlik) avj olgach, evfemik birliklar qatorida nutq sathida yetarli darajada o‘z o‘rniga ega bo‘la boshlaydi va tilshunoslikning tadqiqot manbaiga aylanadi.Disfemizm tasnifi tilshunoslik sohasida ayrim ishlardagina amalga oshirilgan. Masalan, ingliz tilida disfemizm leksik-semantik jihatdan quyidagicha tasnif qilinadi:

– o‘lim, kasallik, jismoniy va ma’naviy nuqsonlarni bildirib keluvchi disfemizmlar;

– keng doiradagi jinoiy guruhlar bilan bog‘liq disfemizmlar;

– inson nuqsonlari bilan bog‘liq disfemizmlar;

– millatga mansub disfemik nomlar;

– xudo, iblis (shayton), cherkov marosimlari bilan bog'liq disfemizmlar.

Shuni aytish kerakki, uning ham evfemizm kabi mavzuiy guruhlari, leksik-semantik yo'nalishlari, ijtimoiy-tarixiy kelib chiqishiga ko'ra turlari mavjud. Disfemizmlar evfemizmlar bilan munosabatdosh bo'lganligi sababli, ular tasnifida ham evfemizmlar tasnifidagi kabi ayrim omillar tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi: Tilshunoslikka oid lug'atlarda disfemizm xususida alohida to'xtalinmay, unga evfemizm bo'limida yo'l-yo'lakay izoh berilib ketiladi. Bunga misol sifatida V.N.Yarseva tahriri ostida chop etilgan "Лингвистический энциклопедический словарь"ni olish mumkin. Unda evfemizm xususida so'z ketganda yo'l-yo'lakay "uslubiy va emotsional betaraf so'zni nisbatan qo'pol, noqulay so'z bilan almashtirish" deya ta'riflanadi va упасть so'zining disfemizmi sifatida загреметь, заплакать so'zining disfemik varianti sifatida рассопливаться, o'lmoq so'zining disfemik ko'rinishi sifatida сыграть в ящик birikmasi beriladi.

Dastlab, Yevropa tilshunoslari e'tiborini tortgan ayni hodisa Vidlak, Jelvis, Katsev, Speygal, Allan, Giezek kabi olimlarning ishlarida o'z aksini topadi. Ularda ta'kidlanishicha, disfemizmlarning evfemizm bilan o'xshash tomoni shundaki, denotatga ma'lum konnotativ mazmun yuklaydi, til sathida sinonimik qatorni tashkil etadi, evfemizm bilan birdek qadimiy jarayon hamda nutqiy hodisa sifatida qaraladi.

A.N.Rezanova ingliz tili disfemizmlarini o'rganar ekan, disfemizm tarixi, badiiy nutqdagi vazifalari, leksik-semantik tahlili va tasnifini amalga oshiradi. Disfemizmga ham asosan nutqda ro'y beradigan nolisoniy omil sifatida qarash lozimligi, u denotat salbiy ta'sirining kuchayishi ekanligi e'tirof etiladi: "Disfemizm – denotatni (tahqirlovchi, u yoki bu tarzdagi ottenkali) salbiy

bo'yoqdor so'z bilan ifodalash." Shuningdek, T.V.Boyko, T.S.Bushuyevalar disfemizmni evfemizm bilan yonma yon tadqiq etadilar.

O.V.Potapova belorus, rus va polyak xalqi tilining XIX asrlardagi etnik qolipini o'rganar ekan, shunday yozadi: "Etnonominatsiya muhitida leksemalarning uslubiy farqlanishi muhim rol o'ynaydi. Aynan "etnik jamoaga xoslik" ma'noli leksemaga muayyan bo'yoq berish ushbu LSG ichida sinonimlar vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Bunda ikki usul qo'llanadi: evfemizatsiya va disfemizatsiya" deb hisoblaydi.

I.P.Pasechnikova hozirgi nemis tilida urush va tinchlik tushunchalarining mohiyati xususidagi tadqiqot ishida ham evfemizm va disfemizmlarga to'xtaladi: "Urush va tinchlik qutbiy fenomenlarining baho kategorizatsiyasi sub'ektning o'z va begona arxetipik sotsiomadaniy ziddiyatiga mo'ljali bilan shartlangan bo'ladi.

Muhokama va natijalar: Disfemik ma'noli birliklar kam va shu jihatdan uning mavzuiy guruhlari doirasi ham asosan:

So'kish;

Haqorat;

Qarg'ish;

Kinoya;

Masxara tushunchalarini ifodalovchi vositalar bilan chegaralanadi.

"Aytmagan joyga yo'nmagan tayoq" ham bo'lib oladirlar(chaqirilmagan mehmon), allaqaysi go'rga qochdi (o'zini olib qochdi; chetga oldi), maymunlik (ikkiyuzlamachilik) kabi iboralar tarkibida tayoq, go'r birliklari qo'llanilganligi hamda hayvon xarakterida mavjud fe'lning insonga nisbatan ishlatilganligi tufayli disfemik ibora sifatida qaraladi.

Disfemik ma'noli birliklarning leksik-semantik munosabatlar asosidagi tasnifi. Disfemik ma'noli birliklar o'zaro leksik-semantik munosabat ham hosil qiladi. Ayniqsa, ular sirasida nutqiy xarakterdagi **ma'nodoshlik, zid ma'nolilik holatlari ko'proq kuzatiladi.** Ma'nodoshlik- bitta so'zning turli xil ma'nolarda ishlatilishi.

Zid ma'noli disfemiyada esa so'zlar qarama-qarshi qo'yiladi. Masalan; Bu erdagi bolalari ahvollaridan so'rasalar, alhamdulilloh, ular ham erkagu urg'ochi, bo'g'ozu qisr degandek o'ynab-kulibyuriydirlar. («Maskov xatlari», Diyori bakr – 219) Hayvonlarga nisbatan ishlatiladigan "bo'g'oz" so'zi insonga nisbatan qo'llanadi, shu o'rinda "qisr" deya ayni ifodaning antonimik ("tug'magan") shakli berilib, ifoda ta'siri kuchayadi.

Disfemik birliklarning ma'no qamrovi asosida quyidagicha turlarga bo'lib o'rganilgan: **Monosemantik disfemik birliklar.** Monosemantik disfemik ma'no yuklangan po'kak bosh, sakibedum, soqoling ko'ksingga to'kilsin, to'ng'izxona, qo'tir itning keyingi oyog'i, itdek qirgan, bola tashlar edi kabi birliklar faqat bir disfemik ma'noda qo'llanganligi bilan xarakterlidir.

Polisemantik disfemik birliklar. Xumsa ifodasi ham evfemik, ham disfemik bo'yoqqa ega bo'lishi kuzatiladi. Har ikkala voqelanish polisenmantik bog'lanishga ega. Ulardan biri qo'pol tushunchani yumshatish uchun xizmat qilsa, ikkinchi variantda, aksincha, kishiga nisbatan haqorat, qarg'ish ifodalaydi, salbiy emotsiya uyg'otadi.

Disfemik birliklarning shakliy strukturasiga ko'ra tasnifi. Disfemik birliklar shakliy strukturasiga ko'ra ham farqlanadi. Ba'zan ayrim so'z, ba'zan birikma, ba'zan gap disfemik ma'no ifodalaydi. SHunga ko'ra, so'z, so'z birikmasi, gap shaklidagi disfemik ma'noli birliklar farqlanadi.So'z shaklidagi bo'ladi. Gap

shaklidagi disfemik birliklar. Badiiy nutqdagi ayrim disfemik ma'no butun gap orqali ifodalanadi. Bunday disfemik birliklarni gap holidagi disfemik birlik sifatida e'tirof etish mumkin: uyi kuysin, shayton ali qoplag'an, qitiq pari o'lmagan, it tekkan. Nutq madaniyatida umuman salbiy taassurot qoldiruvchi maqollar sanoqli. Masalan, Binobarin, aqlg'a «**qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qir ekanmi?**» degan savollar keladir; janoblari shu iborani qanday tushundilar ekan. (A.Qod. "Mehrobdan chayon"). Aytilganidek, disfemizmlar evfemizmlar bilan voqelik yoki shaxsga munosabat belgisi asosida ziddiyatda bo'lib, disfemizmni qo'llashdan asosiy maqsad denotatga salbiy bo'yoq berish va shu bilan axborot qabul qiluvchida salbiy munosabat uyg'otishdir.Disfemizmlar ko'proq publitsistik asarlarda uchraydi. Chunki bu kichik asarlar fel'eton, hajviya va boshqa yumoristik janrdagi asarlar bo'lib, ular, asosan, ommaviy axborot vositalarida, ya'ni gazeta va jurnallarda chop qilishga mo'ljallangan. Disfemizmlarning ma'lum qismigina badiiy obraz yaratishida qo'llangan bo'lib, ko'pchiligi voqelikka hajviy munosbat bildirilgan kichik asarlarda uchraydi. SHunga ko'ra, ular shartli ravishda badiiy va siyosiy matnga xos disfemizmlar sifatida guruhland**i.Badiiy matnga xos disfemizmlar.** O'tkan kunlar asarining birinchi bo'limida Homidning Rahmat Kumush to'g'risida so'z ochgan vaqtdagi holatini quyidagicha bayon etadi:

– ...bir turlik vaziyatda er ostidan jiyaniga qaradi...

– ...Homid uni er ostidan ta'qib etar edi...

Ta'qib etmoq birligi hech qanday bo'yoqqa ega emas, biroq, **er ostidan** so'z birikmasida ma'lum ma'noda buzg'unchilik, g'araz niyatlilik mulohazalari yashirinadi. Qolaversa, aynan salbiy obraz bo'lganligi uchunmi, uning har bir harakati salbiy taassurot qoldiraveradi. Shuningdek, **kuzatmoq** so'ziga nisbatan olinganda disfemik qiymati ortadi. **Shu birlik ijobiy obrazga nisbatan**

qo'llanilganda bunday holatga duch kelmaymiz: Ertalabki choy hozirlang'an, Otabek homush o'tirar, Hasanali esa uning holini **ta'qib etmoqda** edi. Yoki holis vaziyat yoritilayotganda ham o'z ma'nosida, ya'ni bo'yoqsiz shaklda uchratamiz: O'z og'zidan eshitkanimizdek Sodiq uni, Homidning ta'limoticha, Qo'qon darbozasidan chiqib to karvonlarga qo'shilib olg'uncha **ta'qib etib** borgan edi. Siyosiy tushunchalar disfemizmi haqida. Gazeta va jurnal chop etilishining yo'lga qo'yilishi bilan har qanday publitsist siyosiy hushyor va faol fuqaro sifatida publitsistikaning etakchi vakillaridan biriga aylandi.

Umuman olganda, siyosiy disfemizmlar turli shakl va maqsadda ishlatilgan bo'lsa-da, ular orasida tinglovchi yoki o'quvchida salbiy taassurot qoldirish, voqelikni aslidan ko'ra bo'rttirish vazifasi ko'zga alohida tashlanib turadi. Bunda disfemik ma'no ochiq yoki manipulyativ asosda ifodalanadi.

Xulosa: Disfemizatsiya til birliklarining pragmatik ma'nosi bo'lib, u evefmizatsiyaga zid turadi. Buning sababi – disfemizatsiya hodisasining ba'zan ijtimoiy, ba'zan esa individual sterotiplar bilan bog'lanishi. Disfemizatsiya leksemalarning nutqiy qo'llanish differentsiatsiyasini ham keltirib chiqaradi. Bu esa, o'z navbatida, kontekstual ma'nodoshlik qatorining boyishini ham ta'minlaydi. Matn, bog'liq qurshov va nutqiy vaziyat ma'nodoshlik qatori muvaqqat a'zolarining shu qatordagi o'rnini belgilovchi ijtimoiy omillarni mustahkamlovchi vositadir.Milliy mentalitet ifodasida evfemizmga bo'lgan ehtiyojdan nobop voqelik yoki shaxsni salbiy bo'yoq bilan berish, haqiqatni ro'y-rost tasvirlash istagi goh ustun kelib, qo'pol, noo'rin til birliklari bilan ma'lum zamon nosoz siyosati, nomaqbul kishilari tanqid ostiga olinadi. Go'yoki bu bilan ularga kuchli zarba beriladi, axloqiy mezonlar bilan muvofiqlashishga – tarbiyaga chaqiriladi.Ko'rinadiki, garchi nutqiy xarakterga ega bo'lsa ham, bir denotativ

mazmun ifodalovchi evfemik va disfemik birliklarni o'zaro qiyoslash asosida ularning nisbiy evfemiklik va disfemiklik qiymati baholanadi. Demak, mazkur birliklarga munosabat bildirganda nisbiylik tamoyiliga tayanish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. — М.: Сов. энциклопедия, 1969. – С. 137.
2. Mengliyev B., Sayfullayeva R. va boshq. Milliy tilshunoslik mustaqil rivojlanish yo'lida // Ma'rifat, – 2007, – 21 may.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomli. 60 000 so'z va so'z birikmasi. 2-tom / S.F.Akobirov, T.A.Aliqulov, S.I.Ibragimov i dr.;Z.M.Ma'rufov tahriri ostida. – M: Russkiy yazık, 1981. – B. 144.
4. Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent, Mumtoz so'z, 2011, B.119127
5. Eshqurbonova, A. (2025). Dialoglarda murojaat shakllarining pragmatik tasnifi. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar, 1(6), 238-242.
6. Sayfullayev, N. (2023). TERMS ARE AN INDIVIDUABLE WEALTH OF OUR LANGUAGE. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, *10*(10), 168-170.